

Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI

Prezidentimiz joriy yil 14-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan o‘tkazilgan tarixiy uchrashuvda yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yosh avlod bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarni hal etish, belgilangan vazifalar ijrosiga yondashuvni tubdan takomillashtirish yuzasidan aniq tashabbus va takliflarni ilgari surgandi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari yoshlarni bilimli, vatanparvar, global miqyosda raqobatbardosh insonlar etib tarbiyalashdek ulkan maqsad atrofida jamiyatni birlashtirishga chaqirdi. Jumladan, “Endi barcha tizimdagi rahbarlar yoshlarning baralla ovozi eshitishga majbur. Yoshlar buyuk kelajagimizning asosiy bo‘g‘ini ekanligini tushumagan rahbar bizning safimizda bo‘lishga haqqi yo‘q”, dedi.

Shu kuni Prezidentimiz yoshlarimiz taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan 3 ta muhim hujjatni imzolaganini e‘lon qildi. Mazkur qarorlar yoshlar bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, yoshlar bilan ishlash sohasida yangi tartib-taomillarni belgilab berdi.

Ushbu topshiriqlar asosida 9,2 millionli “Yoshlar balansi” shakllantirilib, ularning individual muammolarini hal etish, qiziqish



va iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha respublika yoshlar komissiyasi nazorati ostida aniq va manzilli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Bunda har bir rahbar va mas‘ul xodimning shaxsiy mas‘uliyati, temir intizomi va professional mahorati ijro intizomining muhim poydevori bo‘lmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali

tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

qarori asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan yangi tizim joriy qilindi. Unga ko‘ra, har oyda topshiriqlar ijrosi bo‘yicha kalendar reja hamda agentlik direktori o‘rinbosarlari bo‘yicha alohida “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, “Ijro.gov.uz” tizimidagi topshiriqlar ijrosi kunbay nazoratga olindi.

► Davomi 3-betda

15-iyun – SHHT tashkil topgan kun

ISHONCH – XAVFSIZLIK, TINCHLIK VA O‘ZARO BOG‘LIQLIKDA RIVOJLANISHNING MUHIM SHARTI

Har bir davrning muhim xususiyatlarini o‘ziga qamrab oluvchi tushunchalar, mavzular bo‘ladi. Voqelik e‘tiborliroq yoki o‘zgina sinchkovlik bilan tahlil qilinsa, buni anglab olish qiyin emas. Anglash mumkin bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarni ko‘lam, ahamiyat, davriylik, yaqqollik yoxud boshqa shu kabi muayyan nuqtayi nazardan qaragan holda turli toifaga ajratish mumkin. Shunday muhim mavzular, alohida ahamiyat kasb etuvchi ayrim tushunchalar ham borki, ular barcha zamon va har qanday makonga bir xil darajada taalluqli bo‘ladi.



Yillar silsilasi ham o‘zgartira olmaydigan, o‘z mavqeini aslo yo‘qotmaydigan tushunchalar sifatida ISHONCH mavzusini dalil sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ishonch, aslida, insonga xos ko‘p qirrali psixologik tushuncha. Uning zamirida, eng avvalo, insonning o‘z ko‘ngliga mos keluvchi xislatlarga ega bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan xayrixohlik tuyg‘ulari yashiringan. Bunda mazkur shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, o‘zgan rom etuvchi mahorat va qobiliyati ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bu tuyg‘uga erishishda, xalq tilida aytganda, ishonch qozonishda erkinlik va xolislik o‘ta muhim. Ishonchning yuzaga kelishida samimiylilik, inson qalбини o‘rtaydigan darajada poklik muhim ahamiyatga ega.

Shu ma’noda, ishonchni baholay bilish lozim. **Yolg‘onga tayanagan ishonch, aslida, ishonchsizlikdir. Ishonirishga qaratilgan aldovni, ta’bir joiz bo‘lsa, ishonchni suiiste’ mol qilish deb tushunish mumkin.**

Jamiyat va davlatning mavjudligi insonlarning o‘zaro munosabatiga tayanadi. Jamiyat yoki davlat bo‘lmasa ham inson yashashi mumkin, biroq insonsiz jamiyat yoki davlatni tasavvur etib bo‘lmaydi. Mazkur mantiq insonga ishonch tushunchasini jamiyat yoki davlatga nisbatan ham qo‘llash xato emasligini anglatadi. Shu ma’noda, davlatlar o‘rtasidagi ishonch ushbu davlatlarda yashovchi xalqlarning bir-biriga o‘zaro ishonchidan tashkil topishi ham ayon haqiqat.

Bir donishmand jamiyat va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yagona ijtimoiy matoga, uning asosiy tarkibiy qismini esa ishonchga qiyoslab, insonlar o‘z munosabati, shaxsiyatini o‘zaro bog‘lamas ekan, bu mato yirtilib ketishini, oqibatda turli nizo va qarama-qarshiliklar yuzaga kelishini ta’kidlagan.

► Davomi 3-betda

Taraqqiyot odimlari

INVESTORLARGA OCHIQ, ERKIN, JOZIBADOR MAMLAKAT

Poytaxtimizda shu yil 10-12-iyun kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazilgan to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi mavqeini mustahkamlashda yangi tarixiy bosqich bo‘ldi. Qolaversa, ushbu forum yangi O‘zbekistonning iqtisodiy diplomatiyasida muhim ahamiyatga ega navbatdagi katta yutuqdir.



Bu yilgi forum avvalgilaridan ko‘lami va ahamiyati jihatidan sezilarli darajada farqlandi. 7500 dan ortiq delegat, jumladan, qariyb 100 mamlakatdan 3000 ga yaqin xorijiy mehmon ishtirokidagi tadbir O‘zbekistonning global investitsiya jamiyatida tutgan o‘rnini yaqqol ko‘rsatdi.

Forum doirasida ilk bor tashkil etilgan investitsiya ko‘rgazmasi yirik mahalliy xususiy kompaniyalarga o‘z salohiyatini xalqaro hamkorlarga namoyish etish imkonini berdi. Bu tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va mamlakatimiz iqtisodiyotida xususiy sektorning hissasini oshirish yo‘lidagi amaliy qadamdir.

Davlatimiz rahbarining Xorijiy investorlar kengashi majlisidagi nutqi yangi O‘zbekistonning ochiqlik va pragmatizm tamoyillariga asoslangan investitsiya siyosatini namoyon etdi. Prezidentimizning “Biz investorlar uchun ochiq, erkin, barqaror va ishonchli mamlakat — yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz” degan fikri mamlakatimizning strategik yo‘nalishini anglatadi. Ochiqlik va pragmatizm tamoyillariga asoslangan yondashuv xalqaro iqtisodiy hamjamiyat bilan yo‘lga qo‘yilayotgan munosabatlarning mazmunini belgilaydi.

► Davomi 2-betda

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan o‘tgan yili O‘zbekistonga kiritilgan qariyb 1 milliard dollarlik rekord investitsiya xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligimizning yaqqol natijasidir. Mamlakatimiz ushbu bankning mintaqaviy yirik hamkori maqomiga ega bo‘lishini diplomatik muvozanat va iqtisodiy pragmatizmning samarali birlashuvi natijasi sifatida baholash lozim.

Xalqaro moliya korporatsiyasi, Ernst & Young, Dentons, Knauf kabi nufuzli xalqaro kompaniyalarning milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflari 10 dan ortiq qonun, farmon va qarorlarda konseptual ifodasini topdi. Bu qonunchilik tizimimizning xalqaro talablarga mutanosibligini ta‘minlashdagi izchil va maqsadli ishlarning samarali natijasidir.

O‘zbekistonda bazaviy soliq stavkalarining 2028-yilgacha o‘zgarishligi to‘g‘risidagi rasmiy e‘lon investorlar uchun prognozlashuvchanlik va barqarorlikni kafolatlaydi hamda davlat siyosatining investitsiya muhiti barqarorligini ta‘minlashdagi uzoq muddatli xarakterini belgilaydi.

DUNYODAGI O‘ZBEKISTON YOXUD O‘ZBEKISTONDAGI DUNYO

MARKAZIY OSIYO HAMKORLIGIGA BIR NAZAR

Munosabat

Ba‘zan dunyo xaritasida yonma-yon, baqamti yashayotgan davlatlarning o‘zaro nizolashuv va urushlarini ko‘rib, hayron bo‘lasiz kishi: axir ular ko‘p asrlar davomida bir joyda yashayapti, bir ariqdan suv ichyapti. Ularning hech biri hech qachon o‘z yerini tashlab ketmaydi, demak, ular inoq bo‘lib yashashga majbur. Biroq nima uchundir bu haqiqat ayrimlarga saboq bo‘lmayotir.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan o‘zgarishlar uchun darvozalarimizni ochishga intildi. O‘shalarahalar, ayniqsa, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston bilan bo‘xona postlari ochilganida Markaziy Osiyo jonlandi. Qo‘shnilar ham xuddi biz kabi yo‘l tutdi. Borish-kelishlarimiz kundan kunga qulaylashib, do‘stlik, hamkorlik aloqalarimiz mustahkamlanib bormoqda.



Biz tarixan bir zaminda ahil-inoq bo‘lib yashaganmiz. Dinimiz, urf-odatimiz, tog‘u adirlar, chashmayu daryolarimiz bir. Liboslarimizdagi ayrim belgilarni hisobga olmasak, yuzimiz, yurish-turishimizdan ajratib bo‘lmaydi. Nadomatlar bo‘lsinki,

keyingi yuz yillik ichida ana shu birligimizga putur yetdi. Markaziy Osiyoda Turkiston muxtoriyati o‘rniga yangi respublikalar tashkil etilishi ularning mustaqilligidan ko‘ra o‘zligiga sabab bo‘ldi: har kim ko‘rpini o‘zi tomon tortishga intildi.

► Davomi 2-betda

Ijtimoiy himoya

AYOLLAR VA BOLALARNI TAZIYQDAN ASRASH, MUHOFAZA QILISH

INSONIYLIK VA ADOLAT UCHUN KURASHDIR

Inson qadri, huquqlari... Asrimiz boshiga kelib, bu masala necha ming yillik tariximizda eng barqaror darajaga chiqqan edi, nazarimda: inson huquqlariga doir ko‘plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan, aksariyat davlatlar tomonidan ular ratifikatsiya qilingan va amalga keng miqyosda kirishilgan paytlar.

Afsuski, oradan chorak asr o‘tar-o‘tmas, inson qadri tushunchasiga, umumiy miqyosda olib qaraganda, putur yetdi. Dunyoning turli mintaqalarida avj olayotgan qurolli to‘qnashuvlar, o‘zaro nizolashuv va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari bu tizimni izdan chiqardi. Beqarorlik sabab har kuni ko‘plab

begunoh odamlar yostig‘i quriyotgani, qanchadan qancha zamondoshlarimiz ochlikdan aziyat chekayotgani, ta’lim va tibbiyot, umuman, halovatidan mosuvo ekani haqidagi xabarlarini o‘qiyapmiz.

► Davomi 2-betda

Obod manzillar

“TURIZM MAHALLASI” MAQOMI BEJIZ BERILMAYDI



INVESTORLARGA OCHIQ, ERKIN, JOZIBADOR MAMLAKAT

Taraqqiyot odimlari

Boshlanishi 1-betda

“Yashil iqtisodiyot” va innovatsion rivojlanish yo‘nalishida erishilgan natijalar alohida strategik ahamiyatga ega. “ACWA Power”, “Masdar”, “Linde”, “Total Energies” kompaniyalarining 8 milliard dollardan ziyod investitsiya bilan “yashil” energetika sohasiga kiritayotgan katta hisssasi mamlakatimizning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi jiddiy intilishi va amaliy qadamlarini yaqqol namoyish etadi.

“DataVolt” kompaniyasining mintaqadagi eng yirik “yashil data markaz”ni barpo etishi raqamli iqtisodiyot rivojida strategik ahamiyatga ega muhim qadamdir. Parlament ham “yashil” texnologiyalar va raqamli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha faol va izchil faoliyat yuritmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tizimining rivojlanishi masalasi ham forum e’tibor



Mavluda XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari

markazidagi yo‘nalish bo‘ldi. Joriy yilda yo‘l qurilishi, transport, energetika, suv ta’minoti sohalarida 4,5 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarining boshlanishi infratuzilma rivojlanishiga kompleks

yondashuvni namoyish etadi. So‘nggi ikki yilda xorijiy kapital ishtirokida 5500 ta yangi korxona tashkil etilib, ularning umumiy soni 16 mingga yetgani mamlakatimizning investitsiya jozibadorligini oshirishdagi muvaffaqiyatini tasdiqlaydi.

“IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida taqdim etilgan 30 milliard dollarlik loyihalar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini xalqaro miqyosda yaqqol namoyish etish bilan birga, barqaror taraqqiyotimizga zamin yaratadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizning ochiq, pragmatik va muvaffaqiyatli investitsiya siyosatining aniq dalilidir.

Davlatimiz rahbarining “Sizlarni yurtimizga shunchaki sarmoya kiritishga emas, balki muvaffaqiyatimiz tarixining chinam ishtirokchilariga, biz yaratayotgan buyuk kelajakning ajralmas qismiga aylanishga chorlaymiz”, degan da’vati uzoq muddatli hamkorlik tamoyillarini belgilaydi. Shuningdek, har bir investitsiya loyihasi yangi O‘zbekiston qurilishining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Mamlakatimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar ortga qaytmas tus olgani bor gap. Xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida yurtimizni mintaqaning yirik iqtisodiy markaziga aylantirish asosiy strategik maqsadlarimizdan. Forum natijalari yangi O‘zbekiston qurilishining barcha sohada davom etayotgan transformatsiya jarayonini tezlashtiradi va mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o‘mini yanada mustahkamlaydi.

Munosabat

DUNYODAGI O'ZBEKISTON YOXUD O'ZBEKISTONDAGI DUNYO

MARKAZIY OSIYO HAMKORLIGIGA BIR NAZAR



Farmon TOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Bir so‘z bilan aytganda, Markaziy Osiyo birlashyapti, birgalikda jahon sahnasiga, xususan, jahon bozoriga intilmoqda. Ya’qinda Toshkentda “Markaziy Osiyo — 2050: barqarorlik va umumiy farovonlik sari yo‘l” mavzusidagi birinchi mintaqaviy forumda mintaqa kelajagi muhokama qilindi. Ushbu tadbir hujjatlari bilan tanishar ekanman, anjuman qatnashchilarining fikrlari menda katta qiziqish uyg‘otdi. Xususan, tahlilchi Aziza Umarovaning “Mintaqa davlatlari alohida-alohida gapirsa, biz qiziqish uyg‘otmaymiz. O‘zimizni nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo fuqarolari sifatida qabul qilishimiz uchun mintaqaviy o‘ziga xoslikni ishlash chiqish muhim. Biz buni amalga oshirish qanchalik real ekanini baholashni davom ettiramiz”, degan gaplari kaminani ham bu

borada fikr bildirishga chorladi. Tabiiyki, gap Markaziy Osiyoning 2050-yilgacha bo‘lgan rivojlanish ssenariylari ustida bormoqda.

Albatta, ikki asr davomida alohida-alohida yashashga, o‘z manfaatini alohida himoya qilishga o‘rgangan o‘lkalar va xalqlar uchun hamkorlik oson kechmaydi. Bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Biz Yevropa miqyosida Yevroittifoqning o‘sha mintaqadagi davlatlarga ijobiy ta’sirini, turli davlatlar xalqlarining hamkorlikka erishganini ko‘rdik. Demak, bu tajribani o‘zimizda qo‘llasak ham bo‘ladi.

O‘zbekiston dunyoga chiqyapti, xalqaro munosabatlarda o‘mini topyapti. Dunyo ham O‘zbekistonga intilyapti. Negaki, u hamma bilan manfaatli sheriklik, hamkorlik qilishga tayyor. Negaki, dunyoning global muammolari, jumladan, O‘zbekiston tashabbusi va jonkuyarligi tufayli ham hal etilmoqda. Qizig‘i shundaki, bu muammolar yechimiga aynan O‘zbekistondagi forum va uchrashuvlarda yechim topilmoqda.

Nazarimda, “Biz Markaziy osiyolikmiz!” shiorini shu mintaqadagi fuqarolar ongiga singdirish, eng avvalo, fidoyi ziyolilarning vazifasidir. Binobarin, jadid bobolarimiz o‘z vaqtda aynan ana shunday sharaflari ishini bajara olgan. Faqat mustabid tuzumgina ularning rejalarini yo‘qqa chiqargan.

E’tiborli jihati, mintaqa davlatlari rahbarlarining birgalikdagi yoki o‘zaro muloqotlarida barcha soha va tarmoqlar bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash, o‘zaro tajriba almashish,

ayniqsa, mintqa yoshlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotlarni yo‘lga qo‘yish, sport musobaqalari va madaniy tadbirlarni muntazam o‘tkazishga doir muhim taklif va tashabbuslar ilgari surilyapti. Ishonchim komilki, yoshlarimizning do‘st, hamfikir bo‘lib, mintqa maftaflari borasida musharak maqsadlar bilan xalqaro maydonga chiqishi, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida muntazam sport musobaqalari o‘tkazilishi xalqlarimizning bir-biriga mehr-muhabbatini oshirishi, birligimizni yanada jipslashtirishi tabiiy.

Ko‘rib turibmizki, sayyohlik deyarli barcha qo‘shni davlatlarimiz bilan kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu ishni ham yangi bosqichga olib chiqish zarur. Aslida, bu jarayon juda qizg‘in ketyapti. Masalan, birgina Samarqandning o‘zida deyarli har hafta, albatta, qo‘shni davlatlarning qay biridandir madaniy-ma’rifiy yo‘nalishda delegatsiyalar keladi. Biz samarqandlik adiblarning qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tiliga o‘girilgan yoki aksincha, ushbu tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilingan kitoblari taqdimotlarini o‘tkazyapmiz. Bunday tadbirlar, tabiiyki, qo‘shni davlatlarda ham bor. Sport bo‘yicha ochiq chempionatlarimizga qo‘shni davlatlardan vakillar kelyapti. Ayniqsa, milliy bayramlarni birgalikda nishonlayotganimiz birligimizni ta’minlashga zamin bo‘lmoqda.

Biz qadimdan bir elmiz. Tilimiz turlicha bo‘lsa-da, bitta dilda gapirganimiz va bugungi kunda o‘zimizni tanishtirganda g‘urur bilan “Men Markaziy Osiyodanman!” deya olishimizni juda-juda istayman.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ijtimoiy himoya AYOLLAR VA BOLALARNI TAZYIQDAN ASRASH, MUHOFAZA QILISH

INSONIYLIK VA ADOLAT UCHUN KURASHDIR



Dilnoza NURILLAYEVA,
Nurafshon shahri “Inson” ijtimoiy
xizmatlar markazi
psixologlar guruhi bosh mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Mana shunday global murakkab bir vaziyatda ko‘ngilga taskin beradigan, faqatgina taskin emas, yuraklarga faxr-iftixor, g‘ayratimizga shijoat, kelajakka ishonch beradigan alohida bir jihat bor. Bu — inson qadri tamoyili mamlakatimizda kechayotgan tarixiy yangilanish jarayonlari, ortga qaytmas islohotlarning tub mohiyati, o‘zagini tashkil etayotgani. Ha, yurtimizda bundan 7-8 yil

avval “Inson qadri uchun” tamoyili asosida boshlangan islohotlar bugun katta samara bermoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, yaqin-yaqingacha amalda bo‘lgan “davlat — jamiyat — inson” tamoyili “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o‘zgartirildi. O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamladi. Ayni paytda ushbu tamoyil asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam va xizmatlar ko‘rsatish qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Inson qadri ulug‘lash, xalqimizning huquq va manfaatlarini ta’minlash, shu asosda odamlarni hayotdan rozi qilish — yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir”.

Ijtimoiy himoya sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan yangi tuzilma — Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Joylarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ish boshladi.

Psixolog sifatida ushbu tizimda ishlayotganim, yordamga muhtoj yurtdoshlarimiz, jamiyatimiz rivojiga foydam tegayotganidan g‘ururlanaman. Aslida, har bir inson qadri. Afsuski, hozirgi kunda ham xotin-qizlar turli shakllardagi zo‘ravonlik va tazyiqqa duch kelayotgani bor gap. Bu holatlar jamiyatning



sog‘lom rivojlanishiga jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, jismoniy, ruhiy va iqtisodiy tazyiq ko‘rgan ayollar uchun psixologik yordam hayotda qayta yo‘l topish imkonini yaratadi. Ayolni tinglash uning hayotini saqlab qolish demakdir. Zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollarning aksariyati nafaqat jismonan, balki ruhan ham sinib qoladi. Ularni tinglash, tushunish, ruhiy barqarorlikni tiklash uchun muntazam ravishda amalga oshirilayotgan psixologik xizmatlar bu o‘rinda katta ahamiyatga ega. Nurafshon shahrida shu yo‘nalishga mas’ul mutaxassis sifatida ayni paytga qadar tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan yuzdan ziyod xotin-qiz va ularning voyaga yetmagan farzandlariga psixologik xizmatlar ko‘rsatilganini alohida ta’kidlashni istardim.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazida xotin-qizlar uchun bepul va maxfiy psixologik yordam ko‘rsatilmoqda. Bu xizmatlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- tinglash va qo‘llab-quvvatlash — ayollarni ayblamasdan eshitish, ularga ishonch muhitini yaratish;
- stressni yengish va ruhiy barqarorlikni tiklash — individual va guruhli suhbatlar, mashg‘ulotlar;
- huquqiy yo‘l-yo‘riq berish, zarurat bo‘lsa, huquqshunoslar bilan hamkorlikda ishlash;
- farzandlar bilan ishlash — zo‘ravonlik guvohi bo‘lgan bolalarga alohida yordam ko‘rsatish.

Ayolga yordam berish — faqat u bilan emas, balki uning farzandlari, kelajagi va butun jamiyat bilan ishlash demakdir. Tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashda jamoatchilik faolligi juda muhim. Qo‘shnimiz, tanishimiz yordamga muhtoj bo‘lsa, befarq bo‘lmashimiz kerak. Har bir oilada xotin-qizlar xavfsizlik, hurmat va mehr muhitida yashashi uchun hamkorlikda harakat qilishimiz lozim. Zero, zo‘ravonlikka qarshi kurash bu — insoniylik va adolat uchun kurashdir.

Obod manzillar

Rishton tumanidagi Mamadali Topvoldiyev nomidagi mahalla fuqarolar yig‘iniga “Turizm mahallasi” maqomi berildi. Bu bejiz emas, albatta. Rishton kulolchilik maktabi qariyb 800 yillik tarixga ega. Ushbu maktabning bugungi rivojida shu qadim maskanda umrguzaronlik qilayotgan usta kulollarining xizmati beqiyos. Oddiy soz tuproqdan mo‘jiza yaratayotgan kulollar yillar davomida dunyo sayyohlarini hayratga solib kelmogda.



“TURIZM MAHALLASI” MAQOMI BEJIZ BERILMAYDI

Hozir mahallada 850 ta oila, 2,5 mingga yaqin kishi istiqomat qiladi. Hudud tuman markazida joylashgani bois, azaldan sayyohlar uchun muhim qo‘nalga bo‘lib kelgan. Qolaversa, bu yerda Xalqaro kulolchilik markazi, Xo‘ja Rushnoiy, Sohbi Hidoia ziyoratgohlari, Ikkinchi jahon urushi qahramoni Mamadali Topvoldiyev nomidagi tarixiy muzey, “Koron plyus” kulolchilik korxonasi va muzeyi kabi diqqatga sazovor joylar bor.

— Mahallaga turizm maqomi bejiz berilmadi, — deydi Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Muzaffar Temirov. — Bu yerda bitta xostel, 13 ta oilaviy mehmon uyi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchun klinika, savdo do‘konlari, milliy taomlar oshxonalarini, internet qahramog‘i, issiq va sovuq suv ta’minoti, gid xizmati kabi infratuzilmalar mavjud. Shuningdek, madaniy va tarixiy ziyoratgohlar va asosiy, kulolchilik, hunarmandchilik ustaxonalari bor. Bu ustaxonalarda sayyohlar loydan mahsulot tayyorlash jarayonini kuzatishi, o‘zlari ham yasab ko‘rishi, sotib olishi mumkin.

Sayyohlar uchun xavfsizlik, kommunal va bank xizmatlari, qulay mehmonxona, ovqatlanish obyektlari faoliyati ham zarur. Bu jihatlarisiz sayyohlarni “ushlab qolish” imkonsiz. Shu ma’noda, mazkur mahallada xalqaro sayyohlik talablari asosida qator bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bajarildi. Hudud 24/7 tartibida ishlovchi maskanga aylantirildi. Ko‘chalar va o‘tish joylari

tungi yoritqichlar bilan jihozlandi, jamoat tartibi, fuqarolar xavfsizligini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida zamonaviy huquq-ordibot maskani binosida foydalanishga topshirildi. Sayyohlik firmasi vakillari, turagertlar uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Qolaversa, yangi servislar yo‘lga qo‘yildi.

— Sayyohlar xonadonimizda kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishishi mumkin, — deydi hunarmand Ahmadjon Qurbanov. — Oddiy loy tayyorlashdan tortib, qoliplarga solish, ishlash berish, gul solish, pishirish jarayoni ko‘pchilik uchun juda qiziq. Shu bois, sayyohlar ishimizni soatlab tomosha qiladi. Ba’zi mehmonlar o‘zi idish yasab ko‘radi. Mahallamizga “Turizm mahallasi” maqomi berilganidan mamnunmiz. Bu faoliyatimiz ko‘lamini yanada kengaytirish, sayyohlarga manzur bo‘ladigan noyob mahsulot turlarini tayyorlash imkonini beradi.

“Koron plyus” MCHJ rahbari Ravshan Tojiddinov kulollar sulolasi davomchilaridan. Uning bobosi, otasi usta kulol bo‘lgan. Shu hunari bilan oila tebratgan, halol mehnati ortidan qadr-qimmat topgan. Kulol bobomerosi hunarga o‘ziga xos jilo, sayqal berib, maftunkorligi, jozibadorligini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmogda. Korxonada yuzdan ortiq mahalliy yosh ishlaydi. Ular 300 turga yaqin nafis va betakror kulolchilik buyumlari, koshin va naqshlar tayyorlaydi.



Ko‘rgazma zalidan o‘rin olgan kulolchilik buyumlarini ko‘rgan kishi tuproqdan yasalgan mo‘jiza qarshisida lol qoladi. Buyumlar orasida balandligi 2 metr 70 santimetr bo‘lgan ulkan ko‘za, 40 kilogramm osh sig‘adigan, diametri 1 metr 20 santimetrli lagan ham bor. Bu sopol buyumlarni qo‘lga olib chertsangiz, undan taralgan sas misoli kuyga aylanib, uzoq vaqt qulog‘ingiz ostida jaranglab turadi.

— Mahallamizdagi Xo‘ja Rushnoiy ziyoratgohida umumiy qiymati 1,5 milliard so‘mlik ta’mirlash ishlari bajarildi, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Sobirjon Madaminov. — Natijada sayyohlar, ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Shunga qaramay, hali qilinadigan ishlar bisyor, rejalar ko‘p. Asosiysi, mahallamizda turizmni rivojlantirish orqali odamlar daromadini oshirish, hududni yanada obod va fayzli maskanga aylantirish. Bizda bunday imkoniyat bor. Masalan, hozir Xo‘ja Rushnoiy qadamjosiga har yili o‘rtacha 100 mingdan ortiq ziyoratchi keladi. Rejadagi ishlar sabab bu ko‘rsatkichni yanada oshirish mumkin.

Mahallada agroturizm borasida ham muayyan ishlar qilinmoqda. Buning uchun mehmonlarga aholi tomonidan ekin parvarishi ko‘rsatiladi. Qiziquvchi sayyohlar qo‘liga ketmon yoki belkurak olib, bir oz muddat ter to‘kishi mumkin.

— Yaqin-yaqingacha sayyoh va mehmonlar uchun oddiy mehmonxona, xizmat ko‘rsatish maskanlari yo‘q edi, — deydi Farg‘ona viloyati turizm boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Bahodir Ermatov. — Bugun bu boradagi ishlar salmog‘i keskin oshdi. Prezidentimizning shu yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida 12 ta mahalla fuqarolar yig‘ini turizm mahallasiga aylantirildi. Ularda savdo va servis rivojlantirildi. Buning uchun “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan. Bu boradagi ishlar allaqachon boshlab yuborilgan. Masalan, yo‘l chetida savdo, ko‘ngilochar, gastronomik, turizm va san’atga ixtisoslashgan maxsus savdo va ko‘ngilochar maskanlar barpo etilmoqda. Maqsad xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, turizm salohiyatini oshirishdir. Shu orqali aholi bandligi ta’minlanadi. Daromadi ko‘payadi. Hududga “Turizm mahallasi” maqomi berilishi esa ana shu ishlarga yanada unum va baraka keltiradi. Yangi tashabbuslar, keng imkoniyatlarga eshik ochadi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

15-iyun — SHHT tashkil topgan kun

ISHONCH – XAVFSIZLIK,
TINCHLIK VA O‘ZARO BOG‘LIQLIKDA
RIVOJLANISHNING MUHIM SHARTIQobiljon SOBIROV,
O‘zbekistonda SHHT Xalq
diplomatiyasi markazi
direktori

Boshlanishi 1-betda

Demak, ishonch davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar — xalqaro aloqalar jarayonida jamiyatning boshqa barcha jihati bilan bog‘liq eng muhim ijtimoiy shartdir. Shuningdek, uni jamiyat yoki davlat iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi, rivojlantiradigan kuch sifatida ta’riflash mumkin.

Shanxay hamkorlik tashkilotining 2022-yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammiti oldidan Prezidentimiz xalqaro hamkorlikning universal prinsip va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotganini global darajada davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch

“

Shanxay hamkorlik tashkilotining 2022-yili Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammiti oldidan Prezidentimiz xalqaro hamkorlikning universal prinsip va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotganini global darajada davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch chuqur tanazzulga yuz tutayotgani bilan bog‘lagan edi.

chuqur tanazzulga yuz tutayotgani bilan bog‘lagan edi.

Zamonaviy dunyo siyosiy, iqtisodiy, psixologik va madaniy jihatdan shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Xalqaro munosabatlar tizimida keng ko‘lamli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Dunyoning qaysi nuqtasida ishonch barqaror ekan, ham moddiy, ham ma’naviy yuksalish shu joyda avj olmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hollarda aynan ishonchsizlik oqibatida turli qurolli mojarolar yuzaga kelmoqda. Savdo munosabatlari izdan chiqmoqda. Oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta’minlash borasidagi muammolar yanada keskinlashmoqda.

Davlatimiz rahbari oliy darajadagi turli anjumanlar minbarida turib, **xalqaro munosabatlardagi muvaffaqiyatning asosiy garovi xalqlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni yanada chuqurlashtirish, o‘zaro manfaatlarini inobatga olish va tenglik ekanini ko‘p ta’kidlagan.** Xususan, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning 2019-yilda o‘tkazilgan beshinchi sammitida Prezidentimiz **mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi ishonch xavfsizlik va barqarorlikning eng muhim sharti hamda fundamental asosi** ekanini qayd etgan edi.

Markaziy Osiyodagi barcha ijobiy o‘zgarishlarni mintaqada ishonchning qayta shakllanishi bilan asoslash mumkin. Qisqa muddatda yurtimiz bilan qo‘shni Qozog‘iston va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlar ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilgani, nafaqat davlat rasmiylari, balki mintaq xalqlarining bordi-keldi aloqalari kun sayin mustahkamlanib borayotgani negizida ham o‘zaro barqaror ishonchni kuzatish mumkin, albatta.

Ishonch — mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarning muhim elementi. O‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishda barcha mamlakat ishonch tizimiga muhtoj. Chunki aynan ishonch barcha ishtirokchilar manfaati bir yo‘nalishga jamlash, o‘zaro samarali muvofiqlikni yuzaga keltirishga imkon

axborot tarqatishning boshqa usullarini kiritish zarurligini taqozo etadi. Mamlakatimiz ishtirok etgan xalqaro munosabatlarda ishonchning qay darajada ahamiyatli ekanini anglash uchun Shanxay hamkorlik tashkilotini yana bir yorqin misol sifatida qayd etish mumkin.

“

2001-yil 15-iyunda imzolangan “Shanxay hamkorlik tashkilotini tashkil etish to‘g‘risida”gi deklaratsiyaga ko‘ra, “Shanxay beshligi” rivojlanish jarayonida shakllangan o‘zaro ishonch, manfaatdorlik, tenglik, maslahatlashuvlar, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat, birgalikda rivojlanish istagi turadi. U mafkuraviy va sinfiy xurofotlarni bilmaydi. Shuning uchun ham diplomatiyaning bu turiga “xalq” so‘zi qo‘shib ishlatiladi. Chunki uning asosiy siyosiy maqsadi — turli sohada mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni insonparvarlashtirishga qaratilgan. Bunday aloqalar oddiy insonlar darajasida qanchalik mustahkam bo‘lsa, davlatlar o‘rtasidagi ishonchning ortishiga ham ijobiy ta’sir etadi.

Yana bir fuhat shuki, **xalq diplomatiyasi jihatlarli jamiyatni rivojlantirish uchun zarur.** Shuningdek, mamlakatdagi demokratik mexanizmning bir qismidir. Uning rivojlanish darajasi, shubhasiz, butun jamiyat siyosiy tizimi demokratiyasining ko‘rsatkichi.

Uzoq vaqtдан beri faqat do‘stlik jamiyatlari doirasida faoliyat yuritgan xalq diplomatiyasi hozir qiziqishi, sevimli mashg‘uloti va kasbi orqali har qanday yoshdagi odamlarni birlashtiruvchi kuchli harakatga aylanmoqda. Uning maqsadi yagona — mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, turli sohada aloqalarni rivojlantirish.

Dunyoda globallashuv va integratsiya jarayoni kengayib borayotgan bir vaqtda o‘zaro ishonchning yorqin namunasi hisoblangan xalq diplomatiyasi, ayniqsa, SHHT makonida yaxshi qo‘sh-nichilik munosabatlari hamda har tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilmoqda.



Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON
BUNYODKORLARIAlisher SA‘DULLAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi
direktori

Boshlanishi 1-betda

Xususan, Yoshlar ishlari agentligida “markaziy apparat — tizim tashkilotlari — hududiy bo‘linmalar — mahalladagi yoshlar yetakchilari” **texnologik zanjiri** asosida ijro intizomi yanada mustahkamlandi. Mazkur mexanizm asosida haftaning har dushanba kuni agentlik direktori, har juma kuni agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari huzurida topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda, bu borada mas’ul xodimlar bilan individual ishlash va ularga ko‘maklashish yo‘lga qo‘yildi.

Ijro intizomini yuqori darajada ta’minlashda mas’ul xodimlar kasbiy malakasini oshirish maqsadida 2025-yil yanvar-may oylarida Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan grafik asosida 6 marotaba o‘quv seminar tashkil etildi. Unda Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligi mas’ul xodimlari ham ishtirok etib, Yoshlar ishlari agentligi xodimlariga uslubiy va amaliy ko‘mak ko‘rsatdi. Natijada 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida “Ijro.gov.uz” tizimidagi 563 ta **topshiriq ijrosi belgilangan muddatlarda to‘liq ta’minlandi.**

Jumladan, Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, **ishsiz va biznesni boshlash istagidagi** 384,4 ming yoshni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar bandligi **dasturi**” qabul qilinib, joriy yil 1-iyunga qadar 161,5 mingining (42 foiz) bandligi ta’minlandi.

“

Davlatimiz rahbarining 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida “Aloqabank” tomonidan “Yoshlar biznesi” dasturi amalga oshirilib, dastur doirasida 3698 ta loyihaga 449,6 milliard so‘m uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratildi va 7869 ta yangi ish o‘rniga ishsiz yoshlar joylashtirildi.

Uchinchi hujjat — Prezidentning “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida esa Milliy bank tomonidan “**Kelajakka qadam**” dasturi ishga tushirildi. Bugungi kunga qadar ushbu dastur doirasida 22,7 ming bitiruvchi ishga joylashtirildi va 1549 talabaniy 26,8 milliard so‘mlik biznes loyihalari moliyalashtirildi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan 5,8 ming yoshga subsidiya ajratilib, o‘zini o‘zi band qilishiga ko‘maklashildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 47,8 ming yoshga imtiyozli kredit ajratildi.

Prezidentimizning yana bir muhim tashabbusi bilan 2024-yil 5-aprelda “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinib, unga asosan, 2024-yilda 154,8 ming yoshga 57,1 ming gektar yer ajratildi va 156,4 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirildi.

2025-yilda ham ushbu tizim davom ettirilib, yana 4,8 ming yoshga dehqonchilik uchun 2,5 ming gektar ekin maydoni ajratildi. Natijada 2474 ta mahalla “**yoshlar ishsizligidan xoli mahalla**”ga aylandi. Bu yil kutilayotgan hosildorlik miqdori yanada yuqori. Chunki yosh dehqonlarimiz yerdan unumli foydalanish bo‘yicha muayyan tajribaga ega bo‘ldi.

Globallashuv sharoitida yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega, o‘z yurti manfaatlariga sadoqatli, vatanparvar avlodni voyaga yetkazish davlatimiz oldida eng ulkan maqsadlardan biridir.



Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, barcha davlat tashkilotlari mas’ul mutasaddilarning yoshlar bilan ishlash natijadorligini oshirish bo‘yicha alohida vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, bu yil og‘ir toifadagi 70 ming yosh huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga **nomma-nom** biriktirilib, o‘tgan vaqt davomida ularning **4,2 ming nafari ishga joylashtirildi** va 14,5 ming nafarining ijtimoiy va maishiy muammolari hal etildi.

Kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda “**Jinoyatga jazo muqarrar**” tamoyili asosida 2132 marotaba jinoyat muhkamasi va ziyor sud tashkil etildi, ularda 68,3 mingdan sariy yosh ishtirok etdi.

Bu yildan “**Shijoat va g‘ayrat**” harbiy-sport musobaqalari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilib, unga mahallalardan 284 ming yosh jalb etildi. Ushbu musobaqa yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahallalarda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda harbiy qismlarda “**Jasorat**” harbiy yig‘inlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, 11,5 mingga yaqin yosh harbiy xizmatga saralab olindi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning o‘tgan 5 oyida yoshlar jinoyatchiligi **20,2 foiz kamaydi.** Eng quvonarlisi, **5584 ta mahalla “yoshlar jinoyatchiligidan xoli hudud”**ga aylandi.

“**Besh tashabbus olimpiadasi**”, “**Yosh kitobxon**” ko‘rik-tanlovi va boshqa yirik loyihalar nafaqat yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, balki shaxsiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Birgina joriy yilning o‘tgan davrida bunday madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlov, musobaqa va loyihalariga **5 million** yosh qamrab olinganini mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Bundan tashqari, xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlikka oid “Ibrat farzandlari”,

“Mutolaa”, “Ustoz AI” va “Qizlar akademiyasi” kabi loyihalariga 5,1 million yosh jalb etildi.

Yoshlarning xorijiy tillarga qiziqishi xorijiy tillar bo‘yicha **xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgan 6,8 ming** yoshga imtihin topshirish bilan bog‘liq **15 milliard so‘m** xarajati qoplab berilishida aks etmoqda. Natijada birgina xalqaro “IELTS” imtixonidan **5,5 ball** olgan yoshlar soni 2020-yildagiga nisbatan **5 baravar, 7-8 ball** olganlar **7,5 baravar, 8,5-9 ball** olganlar **24 baravar oshdi.**

Shu o‘rinda 2017-yildan buyon an’anaviy ravishda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi haqida batafsilroq to‘xtalmoqchiman.

Tanlov 3 ta yosh toifasida (10-14 yosh, 15-19 yosh, 20-30 yosh) mahalla — sektor — tuman — hudud — respublika bosqichlarida o‘tkaziladi. Shartlar ham takomillashtirilgan, eng kuchli, zamonaviy kitobxon yoshlarni saralab olishga yo‘naltirilgan.

Unda ishtirok etish uchun 10-14 yoshdagilar maxsus shakllantirilgan ro‘yxat asosida 40 nomdagi, 15-19, 20-30 yoshdagilar 50 nomdagi o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari, ilmiy-mamabop asarlarni o‘qishi belgilangan.

Tahillarga ko‘ra, kitob do‘konlari va kutubxonalarda **eng ko‘p izlanayotgan kitoblar** ham “Yosh kitobxon” tanlovida e’lon

qilingan 140 nomdagi adabiyotlar ekanini ma’lum bo‘ldi. Bu o‘z o‘rnida kitob bozorida talab va taklifning ortishiga ham xizmat qilmoqda.

2017-yildan buyon 238 nafar yosh kitobxon tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan bo‘lsa, shundan 17 nafari g‘oliblikni qo‘lga kiritib, **Prezident sovg‘asi** — “Spark” avtomashinasi, 3 nafari “Cobalt” avtomashinasi, yana 3 nafari “Chazor” elektromobili sovrindori bo‘ldi.

Tanlovda ishtirok etish uchun 2024-yilda 915 mingga yaqin yosh ariza topshirgani tanlovning ko‘lami va nufuzi qanchalar yuqori ekanini ko‘rsatib turibdi.

Umuman, yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar bilan ishlash tizimi yil sayin takomillasib borayotgani, yoshlar masalalarini har doim birinchi navbatda hal etishga qaratilayotgan e’tibor davlat xizmatchilaridan qat’iy tartib va intizom asosida ishlashni, muntazam ravishda olg‘a intilishni talab qilmoqda.

Xususan, 2025-yil mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qilinib, yil bilan bog‘liq davlat dasturiga yoshlarimizning sifatli ta’lim-tarbiya olishi, doimiy mehnat bilan band bo‘lishini ta’minlash yuzasidan strategik muhim vazifalar kiritildi.

Umuman olganda, sohada erishilayotgan samarali natija va yutuqlarning zamirida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va O‘zbekiston Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Mazkur muhim hayotiy topshiriqlar ijrosi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qat’iy tartib va “temir intizom” asosida tizimli tashkil etilishi bilan birga, qat’iy nazorat va mas’uliyatni talab etadigan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda mamlakatimiz yoshlarining hayotda munosib o‘rin egallashiga zamin yaratmoqda.

Adabiy do‘stlik — abadiy do‘stlik

CHINGIZ AYTMATOV – TURKIY XALQLAR O‘RTASIDAGI OLTIN KO‘PRIK

Joriy yil 9-14-iyun kunlari Bishkek shahrida “Chingiz Aytmatov — turkiy dunyo kelajagi” mavzusida xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Forum ishida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar davlat va jamoat arboblari, Qirg‘iziston jamoatchiligi, TURKSOY xalqaro tashkiloti, Chingiz Aytmatov xalqaro instituti vakillari ishtirok etdi. Forum tashkilotchilari TURKSOY bosh kotibiyati, Chingiz Aytmatov xalqaro instituti, shuningdek, Qirg‘iziston Fanlar akademiyasining Chingiz Aytmatov nomidagi Til va adabiyot instituti hamda Qirg‘iziston Madaniyat, sport va yoshlar siyosati vazirligi hisoblanadi.



Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Demokratik
institutlar va fuqarolik jamiyatini
rivojlantirish qo‘mitasi a‘zosi,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori,
akademik

TURKSOY — turkiy dunyo
UNESCOsi

Keyingi vaqtda xalqaro va mintaqaviy doiralarda AYSEKO islom olamining, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti, ya‘ni TURKSOY turkiy dunyoning o‘ziga xos UNESCO tashkilotiga o‘xshatildi.

TURKSOY 1993-yilda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Turkiya madaniyat vazirlari kelishuvi natijasida ta‘sis etilgan. Bugungi kunda TURKSOYga 14 ta davlat a‘zo, shundan 6 tasi tashkilot ta‘sischisi va 8 tasi kuzatuvchi davlat. Qarorgohi Turkiya poytaxti Anqarada joylashgan. Tashkilot Bosh kotibi lavozimida 2022-yil 31-martdan atqoliq qirg‘iz adibi **Sulton Rayev** faoliyat yuritmoqda.

TURKSOYning maqsadi turkiy xalqlar o‘rtasidagi birodarlilik va do‘stlikni mustahkamlash, umumiy turkiy madaniyatni yoyish va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdan iborat. TURKSOYning a‘zo mamlakatlari rahbarlari homiyligida amalga oshirilayotgan faoliyati jahonda yuksak baholalanib, e‘tirof etilgan.

TURKSOY homiyligida Turkiy kengash, Xalqaro turk akademiyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi kabi tashkilotlar faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, TURKSOY ko‘plab loyihalarga UNESCO, AYSEKO, MDHga a‘zo davlatlarning Gumanitar hamkorlik bo‘yicha davlatlararo jamg‘armasi singari tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

Bishkekda TURKSOY tashkilotchiligida o‘tkazilgan forum atqoliq adibning ma‘naviy merosi va uning ahamiyati turkiy dunyo kelajagi uchun nechog‘liq muhimligini teran tahlil hamda talqin etish borasida tom ma‘nodagi jonli muloqot mavodiga aylandi. Ishtirokchilar Chingiz Aytmatov g‘oyalari bugungi kunda ham, ayniqsa, zamonamizning insonparvarlik muammolari sharoitida dolzarb bo‘lib qolayotganini alohida ta‘kidladi.

O‘zbekiston 2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga (TDTGa) a‘zo bo‘lganidan buyon TDT va TURKSOY bilan hamkorlik doirasida o‘nlab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Xususan, TURKSOY tomonidan 2020-yilda Xiva shahri Turk dunyosining madaniyat poytaxti deb e‘lon qilindi, 2024-yilda Buxoroda Turkiy tili davlatlar yosh ijodkorlari anjumanini o‘tkazildi. Shuningdek, o‘tgan yili O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Turkiy dunyo xartiyasi qabul qilindi.

Chingiz Aytmatov xalqaro
instituti — yangi turkiy ma‘rifat
markazi

Forumning yana bir tashkilotchisi — Chingiz Aytmatov xalqaro instituti 2025-yil fevralida Anqarada ochildgan. Institutni tashkil etish g‘oyasini Turkiya davlat arbobi va siyosatchisi Davlet Baxcheli ilgari surgan.

Chingiz Aytmatovning turkiy dunyo uchun ahamiyatiga urg‘u berar ekan, Sulton Rayev yana bunday dedi: “U nafaqat qirg‘iz xalqining, balki butun turkiy dunyoning umumiy qadriyati, umumiy ovozi va umumiy ongidir. Uning asarlari turkiy xalqlarning butun dunyoga yetkazilgan badiiy so‘zidir. Aytmatov insoniyatga turkiy madaniyatni tanitgan mutafakkirdir”.

delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda, shuningdek, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev va Chingiz Aytmatov xalqaro instituti direktorlar kengashi a‘zolari ishtirok etdi.

Tomonlar turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni mustahkamlash, xususan, madaniyat va san‘at arboblarning o‘zaro ijodiy aloqalarini rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar. Muloqot asosida TURKSOY — Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti faoliyati doirasida bu borada izchil ishlar amalga oshirilayotgani ta‘kidlandi.

Shuningdek, mazkur rasmiy delegatsiya-niing Qirg‘iziston madaniyat, axborot va yoshlar siyosati vaziri **Mirbek Mambetaliyev** bilan uchrashuvda XX asrning eng buyuk donishmandlaridan biri, betakror adib, jamoat va davlat arbobi, diplomat Chingiz Aytmatov ijodiy va ma‘naviy merosining butun turkiy dunyo uchun ahamiyati, atqoliq adibning Sharq va G‘arb madaniyatlarini birlashtirgan umuminsoniy gumanist sifatidagi roli yana bir bor e‘tirof etildi.

Muloqot asosida Chingiz Aytmatovning turkiy tili xalqlarning yakdil insonparvarlik va madaniy qadriyatlarini shakllantirishdagi munosib hissasiga alohida e‘tibor qaratildi. Qirg‘iziston vaziri turkiy tili mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni izchil qo‘llab-quvvatlayotgani va rivojlantirishga qo‘shayotgan ulkan hisssasi uchun TURKSOY tashkiloti va Chingiz Aytmatov xalqaro institutiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Turkiy dunyoning Chingiz og‘a
xotirasiga ehtiromi

Bundan roppa-rosa 17 yil avval — 2008-yil 10-iyunda betakror adib, jamoat va davlat arbobi, diplomat Chingiz Aytmatov Germaniyaning Nyurnberg shahridagi klinikada muolaja olayotganida olamdan o‘tgan. Atqoliq zamondoshimiz vasiyatiga ko‘ra, o‘sha yili 14-iyunda Bishkek shahri yaqinidagi qabristonda — Otabeyit tarixiy-memorial majmuasida dafn etilgan.

Otabeyit — otalar mozori degan ma‘noni anglatadi. Ushbu qabriston Bishkekdan 25 kilometr masofadagi Cho‘ngtosh ovulida joylashgan. Bu ziyoratgohda 2020-yili tarixiy-memorial majmua barpo etilgan bo‘lib, u Chingiz Aytmatov tashabbusi bilan Otabeyit deb nomlangan.

Chingiz Aytmatovning vafoti umumxalq motamiga aylanib ketgandi o‘shanda. Chingiz Aytmatov dafn etilgan kunlari yetti yashardan yetmish yashargacha hamma yig‘ladi. Xorijiy delegatlar vakillari, Yevropaning Chingiz og‘aning kitoblarini chop etgan noshirlari, turli mamlakatlardan kelgan yozuvchilar umumxalq motamiga sherik bo‘ldilar. Esimda, “Qirg‘izfilm” kinostudiyasi “Aytmatov bilan vidolashuv” hujjatli filmini ham yaratgandi.

Chingiz Aytmatovning hayoti o‘zi aytganday yakun topdi. Hayot degani chindan-da “**optimistik yakun topadigan fojia**dir”. U vafot etdi, lekin o‘zidan keyin inson joni, uning his-tuyg‘ulari va vijdoni to‘g‘risidagi mangu masalalarga bag‘ishlangan tuganmas ma‘naviy-adabiy meros qoldirdi. Bu meros endilikda butun dunyoga zarur, chunki hozirgi dunyoda chinakam insoniy qadriyatlar o‘rnini iste‘molchi jamiyat qadriyatlari egallamoqda va odamlarni Chingiz Aytmatov aytgan o‘sha “manqurt”larga aylantirmoqda.

Darvoqe, 2025-yil 10-iyun kuni “**Chingiz Aytmatov — turkiy dunyo kelajagi**” mavzusidagi xalqaro forum boshlanishidan oldin Otabeyit yodgorlik majmuasida Chingiz Aytmatovni xotirlash marosimi bo‘ldi. Bu yerda mangu orom topgan qatag‘on qurbonlari va Chingiz Aytmatovning yorqin xotirasi yod etildi, yodgorlik poyiga gulchambarlar qo‘yildi. Qur‘oni karim oyatlari tilovat qilindi.

Fikrimizcha, Otabeyit qabristonida qatag‘on qurbonlari va Chingiz Aytmatovning yorqin xotirasi birdek yod etilgani zamirida o‘ziga xos ramziy ma‘no bor. Chingiz Aytmatovning otasi — rahbar lavozimlarda ishlagan **To‘raqul Aytmatov** 1937-yilda qatag‘on qilinib, 1938-yilda otishga hukm etilgan. Bu yerda u va safdoshlari — qirg‘iz xalqining qatag‘onga duchor bo‘lgan 138 nafar ziyoli farzandi sharafiga xotira majmuasi barpo etilgan.

Shu ma‘noda, ushbu ziyorat turkiy dunyoning Chingiz Aytmatov xotirasiga yana bir yuksak ehtiromi ifodasidir. Binobarin, Chingiz og‘a bilan vidolashuv sanasiga 17 yil to‘lgan bo‘lsa-da, sevimli adibimiz go‘yoki o‘lmagandek, hali ham oramizda yurgandek. Zotan, uning asarlari, g‘oyalari, ezgu ishlari barhayotligini ta‘minlab kelmoqda.

Chingiz Aytmatov ijodiga
bag‘ishlangan rasmlar
ko‘rgazmasi

10-iyun kuni Bishkek shahrida joylashgan **Gapar Aytiev nomidagi Milliy tasviri san‘at muzeyida** Chingiz Aytmatovning hayot yo‘li va ijodidan ruhlanib yaratilgan rasmlar ko‘rgazmasi ochildi. Bu madaniy-ma‘rifiy tadbir xalqaro forum doirasida tashkil etildi.

Avvalo, Gapar Aytiev nomidagi Milliy tasviri san‘at muzeyi tarixi haqida muxtasar so‘z. Ushbu muzeyga 90 yil oldin — 1935-yilda asos solingan. Dastlab Qirg‘iziston rasmlar galereyasi deb atalgan mazkur muzeyga keyinchalik mashhur qirg‘iz rassomi Gapar Aytiev nomi berilgan. Muzey Qirg‘izistonning yetakchi badiiy xazinasi bo‘lib, bu yerda qariyb 18 mingta san‘at asari jamlangan.

Bugungi kunda butun dunyoda tabiat, madaniyat, adabiyot va san‘atga e‘tibor ortib bormoqda. Shu ma‘noda, atqoliq adibning farzandi, **Chingiz Aytmatov fondi prezidenti Eldor Aytmatov** tashabbusi bilan Qirg‘iziston poytaxtidagi mashhur muzeyda ushbu ko‘rgazma tashkil etilgani har qancha tahsinga sazovor.

Bu haqda fikr yuritganda, hozirgi jahon madaniyatshunosligida “**aytmatovshunoslik**” deb nom olgan mustaqil yo‘nalish tarkib topgani va izchil rivojlanayotganini alohida ta‘kidlash lozim. Yozuvchining ijodi va asarlari haqida yuzlab maqolalar, qatrlar, fikrlar, ilmiy tadqiqotlar yozilgan. Bugina emas, Chingiz Aytmatov ommabop va o‘ta obro‘li nashrlarning, gazetalr, jurnallarning ardoqli muallifi edi.

Aksariyat mamlakatlar ommaviy axborot vositalari o‘z radioefirlari va teleekranlarini Chingiz Aytmatovga taqdim etgan paytlar ko‘p bo‘lgan. Yozuvchining dunyo ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi barcha muhim



voqealar xususidagi fikri Sharq hamda G‘arb kitobxonlari, gazetxon-jurnalkxonlari va tomoshabinlari uchun ham nufuzli va qiziqarli edi.

Chingiz Aytmatov asarlarining o‘ta jozibali bo‘lishi muallif aql-idrokining falsafiy mantig‘i samarasidir. Aslida, uning kitoblari kishini sehrlab qo‘yadi, teran xayolga cho‘mishga undaydi, nafis iqtidori va gumanistik yaxlitligi bilan farqlanib turadi. Shuning uchun dunyoda Aytmatov ijodining ixlosmandlari bisyor.

UNESCO ma‘lumotlarida adib asarlarining jahonshumul muvaffaqiyati, uning butun dunyoda tan olinishi bilan bog‘liq quyidagi xabarlar e‘lon qilingan: **XXI asr bo‘sag‘asida Chingiz Aytmatovning asarlari 168 ta mamlakatda, 165 ta davlat tilida, 672 million nusxada 830 marta nashr etilgan.** Bu raqamlar, albatta, kundan kun ortib bormoqda. Adibning ko‘plab asarlari asosida filmlar va sahna asarlari yaratilgan bo‘lib, ular qiziqish bilan tomosha qilinadi.

Chingiz Aytmatov uy-muzeyiga
O‘zbekistonda nashr etilgan
kitoblar taqdim etildi

10-iyun kuni forum ishtirokchilari Bishkek shahrida joylashgan **Chingiz Aytmatov uy-muzeyini** ziyorat qildi. Mehmonlarni atqoliq adibning farzandi, **Chingiz Aytmatov fondi prezidenti Eldor Aytmatov** kutib oldi.

Uy-muzey kutubxonasiga O‘zbekistonda atqoliq adib hayoti va ijodiga bag‘ishlab chop etilgan yangi kitoblar taqdim etildi. Bu nashrlar orasida kamina qalamiga mansub “**Chingiz Aytmatov fenomeni**” (“Феномен Чингиза Айтматова”) hamda “**Chingiz Aytmatov: mumtoz adabiyotning oltin hikmatlari**” (“Чингиз Айтматов: золотые афоризмы классической литературы”) kitoblari ham bor.

Bu kitoblarning dastlabkisida mumtoz adibning ijodiy merosi va diplomatik faoliyati haqida so‘z boradi. Chingiz Aytmatov asarlaridan xabardorligim, shuningdek, ko‘p yillar davomida Toshkent va Moskva, Parij va Bryussel shaharlarida yozuvchi bilan shaxsan bo‘lib o‘tgan subhatarimiz asosida tug‘ilgan unutilmas taassurotlar hamda fikr-mulohazalarim qog‘ozga tushirilgan. Keyingi kitobdagi Chingiz Aytmatov asarlaridan terib olingan noyob hikmatli so‘zlar buyuk adibning nomi zukko faylusi va insonparvar sifatida manguqlikka doxillicha qolishidan yaqqol dalolatdir.

O‘zbek xalqi ulug‘ qirg‘iz adibining aksariyat asarlarini o‘z ona tilida anchadan buyon va qayta-qayta mutolaa qilib kelmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimiz nashriyotlarida adibning o‘nlab kitoblari chop etilgan. Ayniqsa, 2015-yilda yozuvchining **6 jildi “To‘la asarlar to‘plami”** nashr etilgani o‘zbek kitobxonlari uchun ajoyib tuhfa bo‘ldi. Bu asarlarni tarjima qilishda Asil Rashidov, Ibrohim G‘afurov, Suyun Qorayev kabi yetakchi tarjimonlarning yuksak mahorati va fidoyilarcha ijodiy mehnati tahsinga loyiqdir. O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi “Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ayni ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonga kuchli turkti berdi. Xususan, 2023-yili Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston” nashriyotida “**Chingiz Aytmatov. Asarlar**” **10 jildli to‘plami** chop etilgani katta ma‘naviy-adabiy voqea bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining “**Chingiz Aytmatov nafaqat qirg‘iz eli, ayni paytda butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham aziz va qadrlı siymo, O‘zbekistonning ulkan do‘sti edi**”,

degan fikri bejiz emas. Chunki yurtimiz, mintaqamiz va butun turkiy dunyoda bu ulug‘ ijodkorning kitoblari kirib bormagan biror xonadonni, uning go‘zal qissa va romanlarini o‘qimagan, ular asosida yaratilgan kinofilmlarni tomosha qilmagan biror kishini topish qiyin.

Chingiz To‘raqulovich dunyo fuqarosi edi. Uning chuqur badiiy-falsafiy qarashlari, qahramonlarining hayotga muhabbati cheksiz edi. Atoqli adib o‘z ijodida jahon adabiyotining xalq hayoti bilan bog‘liq yo‘nalishlarini tadqiq etdi. U Sharqning chuqur falsafasi va Yevropa adabiyotining eng sara an‘analarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Chingiz Aytmatov turkiy dunyo adabiyotining eng ulkan namoyandasi. Shunday ekan, kelgusida Chingiz Aytmatov to‘la asarlari elektron to‘plamini nashr etish, aytmatovshunoslik jahon kongressini o‘tkazish, ulug‘ adib izdoshlari — yosh yozuvchilar forumlarini tashkil etish lozim degan fikrdamiz.

Chingiz Aytmatov — turkiy
dunyo kelajagi

Bishkek shahrida ulug‘ adib xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro forum aynan shunday nomlanganini qayd etgandik. Forum davomida TURKSOY Bosh kotibi, tanilqi qirg‘iz adibi Sulton Rayev “**Chingiz Aytmatov turkiy xalqlar o‘rtasidagi oltin ko‘priikka o‘xshaydi**”, degan hikmatli iborani tilga oldi.

Aslida, forum tom ma‘noda adib merosini va uning turkiy dunyo kelajagi uchun ahamiyatini muhokama qilish maydoniga aylandi. Ishtirokchilar o‘zgarayotgan jahon tartibi sharoitida turkiy madaniyatini saqlab qolishning muhimligini ta‘kidladi.

TURKSOY Bosh kotibi qayd etganidek, “**Biz yashayotgan dunyo shiddat bilan o‘zgarmoqda: kuchlar muvozanati silijiyapti, chegaralar o‘zgariyapti va texnologiyalar rivojlanishda davom etmoqda. Biroq barcha bunday o‘zgarishlar orasida insonning ruhi, vijdoni va asosiy qadriyatlarini saqlab qola olamizmi? Mana shu savol ustida chuqur o‘ylab ko‘rish kerak**”.

Chingiz Aytmatovning turkiy dunyo uchun ahamiyatiga urg‘u berar ekan, Sulton Rayev yana bunday dedi: “**U nafaqat qirg‘iz xalqining, balki butun turkiy dunyoning umumiy qadriyati, umumiy ovozi va umumiy ongidir. Uning asarlari turkiy xalqlarning butun dunyoga yetkazilgan badiiy so‘zidir. Aytmatov insoniyatga turkiy madaniyatni tanitgan mutafakkirdir**”.

O‘z navbatida, **Chingiz Aytmatov xalqaro instituti rahbari, professor Ilyas Tupsakal** turkiy madaniy an‘analarni o‘rganish va tarixiy ongni tadqiq etishning muhimligiga e‘tiborni qaratdi. U Chingiz Aytmatov asarlarida turkiy dunyoning umumiy qadriyatlarini aks etganini qayd etdi.

Ilyas Tupsakalning fikricha, buyuk insonlarning hayoti xalqlar hayotiga o‘xshaydi. Ular millatimiz o‘tmishining ko‘zgusi ham, kelajagining poydevori hamdir. Shu ma‘noda, ulug‘ adibning asarlari tariximiz, muhabbatimiz, umidimiz va dardimiz haqida hikoya qiladi. Bu asarlar turkiy xalqlar yoshlariga ularning o‘tmishi haqida so‘zlab beradi va kelajakka yo‘l ko‘rsatadi.

Chingiz Aytmatovning “**Men uchun o‘zbeklar va qirg‘izlar bir xalq, bu mening xalqim**”, degan mashhur so‘zlari bor. XX asrning 80-yillarida sobiq markaz tomonidan uyushtirilgan “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” kabi adolatsiz siyosiy kampaniyalar paytida Chingiz Aytmatov adolat va haqiqat jarchisi sifatida xalqimizning sha‘ni va

Chingiz Aytmatov deyarli 80 yillik umrining qariyb 20 yilini elchi martabasida o‘tkazdi. Dastlab buyuk termoyadro mamlakatining, so‘ngra sovetlardan keyingi eng yirik Rossiya davlatining, keyingi 15 yil ichida esa o‘z vatani — kichkinagina tog‘li mamlakatning buyuk elchisi sifatida ko‘p yillik diplomatik yo‘lni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tdi.

qadr-qimmatini mardlarcha himoya qilgan. Forumda kamina shular haqida ham to‘xtaldi. Buyuk adib davlatimiz tomonidan “**Do‘stlik**” va “**Buyuk xizmatlari uchun**” ordenlari hamda Turkiy davlatlar tashkilotining **Alisher Navoiy nomidagi mukofoti** bilan taqdirlangan. Ulug‘ adib xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining markaziy ko‘chalaridan biriga uning nomi berilgani ham biz uchun juda muhim.

Chingiz Aytmatov — elchi va
xalq diplomati

Diplomatiya tarixi diplomatik faoliyat bilan adabiyot va yozuvchi mahorati o‘rtasida tig‘iz bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Chingiz og‘aning ta‘biri bilan aytganda, “**Yozuvchi bilan diplomatning kasblari bir-biriga o‘xshab ketadi. Unisi ham, bunisi ham xalqlarni yaqinlashtiradi, faqat, albatta, har biri o‘z mohiyatiga qarab ish ko‘radi**”.

Chingiz Aytmatov deyarli 80 yillik umrining qariyb 20 yilini elchi martabasida o‘tkazdi. Dastlab buyuk termoyadro mamlakatining, so‘ngra sovetlardan keyingi eng yirik Rossiya davlatining, keyingi 15 yil ichida esa o‘z vatani — kichkinagina tog‘li mamlakatning buyuk elchisi sifatida ko‘p yillik diplomatik yo‘lni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tdi.

Chingiz Aytmatov jahon diplomatiyasi tarixida uchta davlatning elchisi sifatida ishlagan noyob shaxsdir. U Lyuksemburg Buyuk Gersogligida sobiq SSSRning birinchi va Rossiya Federatsiyasini birinchi elchisi, Qirg‘iz Respublikasining birinchi elchisi (ayni vaqtda o‘rindoshlik bilan to‘rtta mamlakatda: Belgiya, Fransiya, Niderlandiya va Lyuksemburg Gersogligi qirolliklarida, ya‘ni “Benilyuks” davlatlarida elchi) edi.

Chingiz og‘a bir tomonlama diplomatiya maydonidagina emas, balki ko‘p tomonlama diplomatiya maydonida ham faoliyat yuritdi. **Chingiz Aytmatov Yevropa hamjamiyatlari komissiyasida, NATO va UNESCOda o‘rindoshlik asosida Qirg‘izistonning birinchi doimiy vakili** edi. Bundan tashqari, u boshchilik qilgan elchixonaga Qirg‘iziston hukumatining Jahon bojxona tashkiloti, Xalqaro arbitraj sudi va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakili vazifasini bajargan.

Yana bir muhim jihat: Chingiz Aytmatov elchilik vazifasiga rasmiy tayin etilmasdan oldin **Issiqko‘l forumi** xalqaro harakati asoschisi va uzluksiz rahbari sifatida xalq diplomatiyasi sohasida faol ishlagan. Ulug‘ adib tashabbusi bilan Issiqko‘l forumi turli madaniy tamaddunlar tutashgan joyda paydo bo‘ldi.

Issiqko‘l forumini **Rm klubining Osiyodagi yo‘ldoshi desa bo‘ladi**. Ko‘pgina hollarda ularni bir-biriga o‘xshatadilar va Issiqko‘l forumi Rm klubi bilan ma‘naviy jihatdan yaqin deydlar.

Yanada e‘tiborlisi, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “**Ulug‘ adib nafaqat betakror va go‘zal asarlari, ayni paytda jo‘shqin ijtimoiy faoliyati bilan ham xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish borasida katta xizmat qildi. U, xususan, 1995-yili Toshkentda tashkil etilgan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan edi**”.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi, ta‘bir joiz bo‘lsa, mintaqamiz uchun o‘shanda UNESCO vazifasini o‘tagan. Mazkur assambleyani **hatto bugungi TURKSOYning poydevori, o‘ziga xos debochasi desak bo‘ladi**. Shu nuqtayi nazardan, Chingiz Aytmatovning hayot va ijod yo‘li turkiy dunyoda qancha ko‘p o‘rganilisa, shuncha maqbul, zarur va manfaatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Bishkek forumida Chingiz Aytmatovning Markaziy Osiyo-da tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish, mintaqamizning porloq kelajagini ta‘minlash, turkiy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash va butun insoniyatni asrash yo‘lida katta sa‘y-harakatlar qilgani atrof-licha e‘tirof etildi.

2028-yili butun dunyoda Chingiz Aytmatov tavalludining 100 yilligi keng nishonlanadi. Ushbu qutlug‘ sanaga tayyorgarlik doirasida yana ko‘plab kitoblar nashr etilishi, tasviriylar san‘at asarlari, hujjatli va badiiy filmlar yaratilishi, adibning uy-muzeyi tubdan modernizatsiya qilinishi kutilmoqda.

